



RAQAMLI MEDIADA MUALLIFLIK HUQUQINING DOLZARBLIGI VA UNI AHAMIYATI

Ilmiy rahbar: O`zXIA katta o`qituvchisi, PhD **Madina Nuritdinova**

Magistrant talaba: O`zXIA, internet jurnalistika fakulteti talabasi **Shohsanam Tursunboyeva**

Annotatsiya: Maqolada ayni raqamli dunyoda mualliflik huquqining o`rni va uni himoya qilishning huquqiy muhofazasi va uni mediada yoritilishi haqida so`z boradi. Shuningdek, onlayn nashrlar va ijtimoiy tarmoqlarda mualliflik huquqiga doir jarayonlarga odamlarning munosabati, qonunchilik tizimini optimallashtirish zaruriyati haqidagi kichik o`rganishlar ham o`z ifodasini topgan.

Kalit so`zlar: Raqamli media, plagiat, sun`iy intellect, to`rtinchi sanoat inqilobi, Chat GPT

Kirish. Oxirgi o`n yillikda jahonda raqamli transformatsiya jarayoni sezilarli tarzda tezlashgan. Bu jarayon esa raqamli mediada an`anaviy muammolarning yangicha ko`rinishini, o`ziga xos raqamli yondashuvlarni taqazo etmoqda. 2023-yil statistikasiga ko`ra, bugungi kunda butun dunyo bo`yicha 5 mlrddan ziyod internet foydalanuvchilari mavjud bo`lib,⁷ shu statistikaning o`zida ham raqamli medianing qanchalik dolzarbligi oshib borayotganligini, an`anaviy muammolarning zamonaviy adaptatsiyaga uchrayotganligini yaqqol anglashimiz mumkin. Jumladan, onlayn nashrlarda mualliflik huquqiga ega bo`lgan asarlarni hech qanday qonuniy shartnomalarsiz raqamli kutubxona tarzida tashkil etilishi, hech qanday huquqiy savodxonliksiz plagiatdan foydalanish kabilarni misol sifatida keltirish mumkin. Ayniqsa, bu muammolar ixtisoslashganda masalaning qanchalik dolzarb ahamiyatga ega ekanligi yanada aniqroq anglashiladi. Shu sababdan ham bugungi kunda mualliflik huquqi nafaqat regional balki jahon miqyosi darajasida ahamiyatli. O`zbekiston Respublikasida ham masalaning mohiyati chuqur anglangan holda, qonunchilikka yangi

⁷ [World Internet Users Statistics and 2023 World Population Stats \(internetworldstats.com\)](https://www.internetworldstats.com)



o`zgartirishlar, aholi huquqiy savodxonligini oshirish maqsadida turli targ`ibot ishlari kuchaytirilmoqda.

Raqamli mediada mualliflik huquqining yangicha formatlashuviga ta`sir qiluvchi omillar: sun`iy intellekt va Chat GPT. Barchamizga ma`lumki, to`rtinchi sanoat inqilobi ostonasida raqamli medianing rivoji ancha jadallashdi. Bu jarayonga ta`sir etuvchi omillarning dastlabkisi sifatida internetning rivojlanishi va uning sun`iy intellect (AI) bilan kombinatsiyasini keltirish mumkin. Asli 2022-yil, 30-noyabrda yaratilgan sun`iy intellekt (AI) texnologiyalardan biri Chat GPT 2023-yil boshida ommaga taqdim etilishi ortidan odamlar mualliflik huquqiga doir bir qator muammolarga duch kelishga allaqachon ulgurdi. Masalan, 2023-yilning 2-fevralida Moscowtimes⁸ nashri bergan xabarlarga ko`ra, talaba Alexandr Zhadan o`z diplom ishini Chat GPT`dan foydalangan holda yozib tugallaganligi va kerakli o`tish ballini to`plaganligi ta`lim sohasiga jon kuydiruvchilarni tahlikaga soldi. Shuningdek, sun`iy intellektning mualliflik huquqi va uni muhofazasiga salbiy ta`sir etuvchi omillari bilan birgalikda raqamli mediada inson omilining yanada kamayishi, ko`plab odamlarning internet savodxonligi yetishmasligi sababidan ishsiz qolishi kabi og`riqli oqibatlarini tahmin qilish mumkin.

Alohida ta`kidlash lozimki, bu borada olim va tadqiqotchilar aniq va batafsil fikrlarini keltirmagan bo`lsalar-da, Chat GPT va mualliflik huquqiga doir bir qancha qonuniy asosga ega bo`lmagan nazariyalar ilgari surilmoqda. Keling, avvalo, mualliflik huquqining xalqaro va hududiy qonunchilikdagi lug`aviy ma`nosini o`rganib chiqamiz. 2022-yilda qabul qilingan xalqaro qonunchilik tizimining “Xalqaro mualliflik huquqi” qonunchiligiga ko`ra, mualliflik huquqi bu - asl asar yaratuvchisiga o`zining adabiy va badiiy asarlari, masalan, kitob, qo`shiq, film yoki dasturiy ta`minotga nisbatan berilgan qonuniy huquqdir. Bu ijodkorga o`z asarlaridan ma`lum bir davr uchun, odatda ijodkorning umri davomida va o`limidan keyin bir necha yil davomida foydalanish va tarqatilishini nazorat qilish uchun eksklyuziv huquq va huquqlarni beradi.⁹ Ko`rinib turibdiki, xalqaro qonunchilikda ham davlatimiz qonunchiligida ham mualliflik huquqi shaxsga va shaxsning o`zi yaratgan

⁸ <https://www.themoscowtimes.com/2023/02/02/russian-student-allowed-to-keep-diploma-for-chatgpt-written-thesis-a80125>

⁹ [Facilitate Your Legal Journey Globally | LegaMart](#)



ixtirosi, asariga berilishi nazarda tutilgan¹⁰. Ammo buni suiste`mol qilish holatlarining oqibatida inson tomonidan yaratilgan asarlar, xabarlarini farqlab olish qiyinlashadi.

Raqamli mediada mualliflik huquqiga doir muammolar. Yuqorida raqamli mediaga ta`sir qiluvchi texnologik omillarning ba`zilari xususida so`z yuritildi. Bu texnologik omillar yuzaga keltirayotgan muammolar ham ko`p bo`lib, Warangai milliy texnologiya instituti tadqiqotchisi Iranna M Shettar qarashlariga ko`ra, raqamli media mualliflik huquqiga doir muammolar quyidagicha tasniflanadi¹¹:

3. Dasturlashga doir;
4. Skanerlashga doir;
5. Multimedia CD room`lar;
6. Internetga doir;
7. Email tizimiga doir;
8. Saytlar litsenziyalash tizimiga doir

Mazkur sferalarga doir muammolar har bir hududda o`ziga xoslik va individuallikka egadir. Muammoga chuqurroq nazar soladigan bo`lsak, O`zbekiston hududida internet tizimiga doir dolzarb muammolardan biri bu mualliflik huquqlariga doir hech qanday shartnomalarsiz tashkil etilgan onlayn kutubxonalaridir. Bunday kutubxonalar ayniqsa, ijtimoiy tarmoqlarda keng urchigan bo`lib, muallif va tarjimonlar noroziligiga sabab bo`lmoqda. Bunga yaqqol dalil sifatida adiba Marziya Saydam tarjima qilgan Adam Uzkusaning “Jannatga taklifnoma” asari mualliflik huquqi bilan bog`liq muammolarni keltirish mumkin. Bu asar O`zbekistonda ko`zga ko`ringan kitob do`koni va nashriyotlarda allaqachon minglab tirajda sotilib, tarjimonning noroziligiga sabab bo`lgan. Bu masala hali o`z yechimini topmadi va jamoatchilikning sust reaksiyasi ham mualliflik huquqidan ko`pchilik bexabar ekanligini va bu kabi holatlar raqamli mediada to`xtovsiz yuz berayotganligini ko`pchilik ta`kidlamoqda.

Xulosa.

Xulosa sifatida shuni aytish mumkinki, yangi zamonda, to`rtinchi sanoat inqilobi ostonasida qonunlar ham texnologik taraqqiyotga moslashishi, mavjud qonunchilikka

¹⁰ [O'zbekiston Milliy Ensiklopediyasi.indd \(ziyouz.com\)](http://O'zbekiston Milliy Ensiklopediyasi.indd (ziyouz.com))

¹¹ [\(PDF\) Copyright Issues in Digital Media \(researchgate.net\)](http://(PDF) Copyright Issues in Digital Media (researchgate.net))



o`zgartirishlar kiritib, uni mustahkamlashi lozim. Shuningdek, hindistonlik tadqiqotchi G.R Srikanth¹² Hindistondagi mualliflik huquqi tizimini yanada optimallashtirish zaruriyatini tadqiq qilgan holda bu zaruriyatga Chat GPT asos bo`lganligini ham ta`kidlab o`tadi. Va bu jarayon albatta O`zbekiston qonunchiligi uchun ham muhim. Hindistonlik tadqiqotchi bunga alohida qo`shimcha tarzda, maqolani Sun`iy intellekt (AI) yordamida emas, o`zi yozganligini ham maqolaga kiritib o`tgan. Bu kabi holatlarning ko`payganligini o`zi ham mualliflik huquqi tushunchasiga sun`iy intellekt bilan bog`liq normalar ham kiritilishi lozimligini taqazo etadi. Va albatta bunday normalar har bir soha jumladan, raqamli media sohasida ham dolzarb bo`lgan muammolardandir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro`yxati

1. [World Internet Users Statistics and 2023 World Population Stats internetworldstats.com](https://www.internetworldstats.com)
2. <https://www.themoscowtimes.com/2023/02/02/russian-student-allowed-to-keep-diploma-for-chatgpt-written-thesis-a80125>
3. [Facilitate Your Legal Journey Globally | LegaMart](#)
4. [O'zbekiston Milliy Ensiklopediyasi.indd \(ziyouz.com\)](https://www.ziyouz.com)
5. I.Shettar. Copyright Issues in Digital Media. ILA-TISS 2008: Knowledge for All: Role of Libraries and Information Centres At: Tata Institute of Social Sciences, Mumbai
6. G.R. Srikanth. Artificial Intelligence (Chat GPT) and Copyright Laws in India.

¹² [Artificial Intelligence \(Chat GPT\) and Copyright Laws in India Article - Legal Articles in India \(legalservicesindia.com\)](https://www.legalservicesindia.com)